

## **PEDAGOGLAR ISH FAOLIYATI JARAYONIDA PSIXOLOGIK MUAMMOLARNING VUJUDGA KELISHI**

**Dosnazarova Nilufar Karimbergenovna**

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxiatosh tuman 18-sonli maktab psixologi*

**Annotatsiya:** Pedagogik faoliyatning natijasi asosiy maqsaddan kelib chiqqan holda o'quvchilarning shaxsiy, intellektual rivojlanishi, ularni o'quv faoliyatining sub'ekti va shaxs sifatida shakllanishi hisoblanadi. Pedagogik faoliyatning muhim tarkibiy qismlaridan biri bu motivatsiya hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** motivatsiya, shaxs, nazariy, empiric, aksiologik, perceptiv, mnemik, kommunikativ, izlanuvchanlik, nazorat qilish, baholash, bixevoirizm, ta'limg-tarbiya, ruhiy holat

### **KIRISH**

Pedagogik psixologiya birmuncha ulkan yutuqlarga erishdi. Pedagogik psixologiyaning ta'limi yangi mazmunda joriy qilish yuzasidan so'nggi yillarda qo'lga kiritgan yutuqlari buning yaqqol dalili bo'la oladi. Ma'lumki keyingi o'n yil mobaynida mamlakatimizdagi barcha ta'limg tizimlarida ta'limg ishlarining mazmuni tubdan o'zgardi. Ta'limg eksperimental ravishda tekshirilgan yangi usullari (masalan, muammoli interfaol ta'limg metodlari) keng joriy qilinmoqda. Pedagogik psixologiya – psixologiya ilmining tarmog'i sifatda, ta'limg va tarbiyaning shaxsga samarali ta'sir etuvchi omillari, qonuniyatlarini va mexanizmlarini o'rganuvchi fandir.

Bolalar va yoshlarning maktabdag'i hamda ta'limg-tarbiya muassasalaridagi faoliyat va xatti-harakatlarining psixologik qonuniyatlarini o'rganuvchi pedagogik psixologiya ikki fanni, ya'ni psixologiya va pedagogika fanlarining tutashgan joyidan o'rinn egallagandir. Pedagogik faoliyat borasida so'z yuritilganda yuqori mahsuldarlik tushunchasi asosiy o'rinni ifodalaydi. Pedagogik faoliyat boshqa faoliyat turlari kabi o'z motivatsiyasi, maqsadi, predmeti, vositalari, usullari, mahsuli va natijasini aks ettiruvchi psixologik mazmunni ifodalaydi. Pedagogik faoliyatning predmeti bo'lib, shaxs rivojlanishining sharti va asosi bo'lmish ijtimoiy madaniyatni singdirishga qaratilgan o'quv faoliyatining manbai

hisoblanadi. Pedagogik faoliyatning vositalari sifatida ilmiy (nazariy va empirik) bilimlarni ko‘rish mumkin. Yordamchi vositalarga esa texnik, kompyuter, grafik vositalarni kiritish mumkin. Pedagog faoliyatidagi ijtimoiy-madaniy malakani etkazish bu tushuntirish, ko‘rsatish (illyustratsiya), darslik mashqlarini tahlil oluvchilar bilan birga ishslash, tahlil oluvchini bevosita amaliyoti (laboratoriya, amaldagi) va treningdan iborat. Pedagogik faoliyatning mahsuli bo‘lib o‘quvchining aksiologik, emotsiyal-mazmuniy, predmetli, baholash mezonlarini aks ettiruvchi individual malakasining shakllanganligi hisoblanadi.

Pedagogik faoliyatning natijasi asosiy maqsaddan kelib chiqqan holda o‘quvchilarning shaxsiy, intellektual rivojlanishi, ularni o‘quv faoliyatining sub’ekti va shaxs sifatida shakllanishi hisoblanadi. Pedagogik faoliyatning muhim tarkibiy qismlaridan biri bu motivatsiya hisoblanadi. Pedagogik faoliyatda ham o‘quv faoliyatdagi kabi motivatsion soha ajratilib ko‘rsatiladi. Bu tashqi va ichki motivlardir. Tashqi motiv sifatida biror bir narsaga erishish istagini, ichki motiv sifatida esa o‘z faoliyatining jarayoni va natijasiga e’tibor berishni misol qilish mumkin. Pedagogik faoliyat pedagogik vaziyatdagi turli tuman xatti-harakatlarning umumlashmasidan iborat: perceptiv, mnemik, kommunikativ, izlanuvchanlik, nazorat qilish, baholash va h.k. Ushbu turli-tuman faoliyatlarning jamlanmasi bir qancha psixologopedagogik funksiyalarni belgilab beradi. P.F.Kapterev o‘qituvchiga xos bo‘lgan ob’ektiv va sub’ektiv xususiyatlarni ko‘rsatib o‘tadi. Umumiyo ko‘rinishda u quyidagicha aks etadi:

O‘zaro munosabat doirasida o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi ta’sirlashuvning emotsiyal darajasini tadqiqot predmeti tarzida qo‘yilishi, xususan, tarbiyachilik faoliyatining yo‘nalishida kam uchraydi. Bu muammoga oid ishlar jumlasiga Abramova G.S., Beknazarov A.A., Berns R, SHuvanov I.B. va boshqalarning tadqiqotlarini kiritish mumkin. Aynan ushbu muammoga aloqador o‘zbek o‘qituvchisiga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar nihoyatda kamchilikni tashkil etadi. Bu sohada Beknazarov A.A., Ismagilova F.S., G‘oziev E.G. va boshqalarning ishlarini namuna sifatida sanab o‘tish joiz.

Pedagogik psixologiya - ta’lim va tarbiya muammolarini tadqiq qiladigan psixologiya sohasi. U shaxsning maqsadga muvofiq rivojlanishini, bilish faoliyatining va insonda ijtimoiy ijobjiy sifatlarni tarbiyalashning psixologik muammolarini o‘rganadi. Pedagogik

psixologiyaning maqsadi — shartsharoit va boshqa psixologik omillardan kelib chiqqan holda o‘qitishning oqilona rivojlantiruvchi ta’sirini kuchaytirish. Pedagogik psixologiya 19-asrning 2yarmida vujudga kelgan. Eksperimental psixologiya tadqiqotchilari Pedagogik psixologiya rivojiga katta hissa qo‘shganlar. Pedagogik psixologiyaning fan sifatida taraqqiy etishida o‘sha davrda yuzaga kelgan psixologik yo‘nalishlar ham turtki berdi. Bixevoiristik (qarang Bixevoirizm) psixologiya yo‘nalishi tarbiyachi va o‘quvchiga tashqi muhitning ta’sirini Pedagogik psixologiya uchun asos qilib oladi. Pedagogik psixologiya umumiy va bolalar psixologiyasi, shuningdek, pedagogika bilan uz-viy bog‘liq. Pedagogik psixologiya, asosan, ta’lim psixologiyasi va tarbiya psixologiyasiga bo‘linadi. Ta’lim psixologiyasi d a o‘quv jarayonida xotira, tafakkur, nutq, xayol, irodaning roli, shuningdek, o‘quvchilarining individual xususiyatlari (temperamenti, harakte-ri, qiziqishlari), o‘quv predmetlarining o‘ziga xos’tomonlari, ta’lim jarayonini boshqarishning psixologik tamoyillari va boshqa o‘rganiladi. Hozirgi zamon ta’lim psixologiyasida o‘quvchilarga doimiy yangilanib turadigan axborotlarni mustaqil o‘zlashtirish imko-niyatini beradigan, ilmiy-texnika yangiliklaridan orqada qolmaslikni ta’minlaydigan tafakkur sifatlarini o‘rganish muhim masaladir. Tarbiya psixol o‘giyasining asosiy vazifasi — mактабдаги tarbiyaviy ishlar jarayonida shaxsning shakllanishi masalasini ishlab chiqish. Unda shaxsning axloqiy sifatlarining shakllanishiga alohida ahamiyat beriladi. Pedagogik psixologiya tadqiqotlari o‘quv materiali mazmunini tanlash, o‘quv dasturlari, darsliklar tuzish, ta’limning har xil bosqichlarida o‘qitish metodlari tizimini tashkil qilishda muhim ahamiyatga ega.[1]

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturini hayotga tatbiq etish jarayonida o‘qituvchining yosh avlodga ta’lim va tarbiya berishida jamiyat oldidagi javobgarligi yanada ortib boraveradi. Pedagog uchun qo‘srimcha, lekin nisbatan turg’un talablar qatoriga kirishuvchanlik, artistlik, shodon xulq, yaxshi did-farosat va boshqalarni kiritish mumkin. Bu xususiyatlar eng asosiy o‘rinda turmasada, ammo o‘qituvchi faoliyati uchun katta yordam beradi. Bosh va ikkilamchi pedagogik xossalari jamlanib, pedagogning shaxsiyatini aniqlaydi, shu jihatlar kuchi bilan har bir o‘qituvchi ajoyib va o‘ziga xos shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Jamiyat tomonidan qo‘yiladigan talablardan eng muhimi o‘qituvchining shaxsi va uning kasbi bilan bog‘lik xislatlariga qaratilganligidir.

Pedagogik faoliyat o‘qituvchining o‘quvchiga uni shaxs va intellektual jihatdan rivojlanishiga yordam beruvchi ta’limiy va tarbiyaviy ta’sirini o‘z ichiga qamrab oladi. Pedagogik faoliyat ham inson faoliyatining boshqa jabhalari kabi tavsiflanadi. Bu eng avvalo maqsadga yo‘nalganlik, motivlashganlik, predmetlilikdir. N.V. Kuzmina ta’rifiga ko‘ra, pedagogik faoliyatning muhim jihat — bu uning mahsuldorligidir. Pedagogik faoliyat mahsuldorligining 5 ta darajasi ajratib ko‘rsatiladi:

I — (minimal) reproduktiv: pedagog o‘zi bilgan narsalarni boshqalarga yetkazib bera oladi;

II — (quyi) moslashgan: pedagog o‘z fikrlarini auditoriyaga o‘ziga xos jihatlari bilan ma’lum qila oladi;

III — (o‘rta) lokal modellashtirilish: o‘qituvchi fanning ma’lum bir bo‘limi bo‘yicha o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarining strategiyasini egallaydi; IV — (yuqori) o‘quvchilar bilimini sistemali modellashtirish; o‘qituvchi o‘quvchilarda fan malakalarini shakllantirishning yo‘l-yo‘riqlarini biladi;

V — (eng yuqori) modellashtirilgan tizimli faoliyat va o‘quvchilar xulq-atvori. Bunda pedagog o‘z fanini o‘rgatishdagi yo‘lyo‘riqlarni shunday egallaydiki, natijada u o‘quvchi ehtiyojlarida o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘ziga ta’lim berish, o‘z-o‘zini rivojlanterish vositasi sifatida xizmat qiladi. Pedagogik faoliyat borasida so‘z yuritilganda yuqori mahsuldorlik tushunchasi asosiy o‘rinni ifodalaydi. Pedagogik faoliyat boshqa faoliyat turlari kabi o‘z motivatsiyasi, maqsadi, predmeti, vositalari, usullari, mahsuli va natijasini aks ettiruvchi psixologik mazmunni ifodalaydi. Pedagogik faoliyatning predmeti bo‘lib, shaxs rivojlanishining sharti va asosi bo‘lmish ijtimoiy madaniyatni singdirishga qaratilgan o‘quv faoliyatining manbayi hisoblanadi. Pedagogik faoliyatning vositalari sifatida ilmiy (nazariy va empirik) bilimlarni ko‘rish mumkin. Yordamchi vositalarga esa texnik, kompyuter, grafik vositalarni kiritish mumkin. Pedagog faoliyatidagi ijtimoiy-madaniy malakanı yetkazish bu tushuntirish, ko‘rsatish (illyustratsiya), darslik mashqlarini tahsil oluvchilar bilan birga ishslash, tahsil oluvchini bevosita amaliyoti (laboratoriya, amaldagi) va treningdan iborat. Pedagogik faoliyatning mahsuli bo‘lib o‘quvchining aksiologik, emotsiyonal mazmuniy, predmetli, baholash mezonlarini aks ettiruvchi individual malakasining shakllanganligi

hisoblanadi. Pedagogik faoliyatning natijasi asosiy maqsaddan kelib chiqqan holda o‘quvchilarning shaxsiy, intellektual rivojlanishi, ularni o‘quv faoliyatining subyekti va shaxs sifatida shakllanishi hisoblanadi. Pedagogik faoliyatning muhim tarkibiy qismlaridan biri bu motivatsiya hisoblanadi. Pedagogik faoliyatda ham o‘quv faoliyatdagi kabi motivatsion soha ajratilib ko‘rsatiladi. Bu tashqi va ichki motivlardir. Tashqi motiv sifatida biror-bir narsaga erishish istagini, ichki motiv sifatida esa o‘z faoliyatining jarayoni va natijasiga e’tibor berishni misol qilish mumkin. Pedagogik faoliyat pedagogik vaziyatdagi turli-tuman xattiharakatlarning umumlashmasidan iborat: perceptiv, mnemik, kommunikativ, izlanuvchanlik, nazorat qilish, baholash va h.k. Ushbu turlituman faoliyatlarning jamlanmasi bir qancha psixologo-pedagogik funksiyalarni belgilab beradi. P.F.Kapterev o‘qituvchiga xos bo‘lgan obyektiv va subyektiv xususiyatlarni ko‘rsatib o‘tadi

O‘quvchi oilasida muammosi bo‘lishi mumkin, bu maktabda bolaning fe’l-atvorida aks etadi. Hech qaysi sinifdoshiga qo‘silmaydi, odamovi, hayolparast bo‘lib qoladi. Shunday vaziyatda ham yordam berilmasa suidsid holatiga olib keladi. Qani edi ota-onalar farzand tarbiyasiga hozirgi kunda alohida e’tibor bilan qarashganda? Axir, tarbiya bola uchun juda ham kerakku! Ayrim ota-onalar o‘qiydida deb shunchaki aytib qo‘yishadi. Lekin hozirgi kundagi ayrim yoshlarni ko‘rib achinaman.

## XULOSA

Pedagogika sohasida hali ancha kamchililar, muammolar talaygina. Lekin, bizning ziylolarimiz bo‘lgan ustozlarimiz shu kabi kamchiliklarni bartaraf etish uchun ancha ter to’kishmoqda. Samarali mehnat qilishmoqda. O’tgan asrda ham jadidchi ota-bobolarimiz pedagogikaning saqlanib qolishiga, millatimizning ilmli, ma’naviyatli bo‘lishiga o’zining ulkan hissalarini qo’shishgan. Shunday bo’lsa ham hamon shu kabi pedagogikaning psixologik muammolari bor. Chunki, bu sohaning oldiga yoshlarni ilmli qilish, tarbiyalash, salohiyatini yuksaltirish, tanqidiy fikrlashini oshirish, mustaqil fikrlashga o’rgatish, dunyoqarashini kengaytirish, malakali kadrlarni tayyorlash, zamon bilan birlgilikda hamnafas bo‘lishi kabi dolzarb muammolar oldinda turibdi.

### Foydalilanigan Adabiyotlar Ro‘yxati:

1. Toshpo'latov Abdulaziz Quvondiq o'g'li, Sodiqov Komil Nozirovich. (2023). MAKTAB O'QUVCHILARI O'RTASIDA IJTIMOIY MUHITNI SHAKLLANISHIDA PSIXOLOGLARNING FAOLIYATI VA IJTIMOIY PSIXOLOGIK OMILLAR. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND INNOVATION, 2(4), 21–23
2. G`oziyev E.Psixologiya.-T., 1999.
3. "Xalq ta'limi"jurnali, 2014-yil, 6-son.
4. "Umumta'lim fanlari metodikasi"jurnali, 2014-yil, 3-son.
5. Internet materiallari